

ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 860,2 mln AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 215,4 mln AQSH dollariga yoki 10,4 % ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 479,6 mln AQSH dollariga (2024 yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 7,0 % ga kamaydi) va import hajmi 1 380,6 mln AQSH dollariga (11,5 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 901,0 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Andijon viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (yanvar-iyun, mln AQSH dollari)**

Davlatlar	2023 y.	2024 y.	2025 y.
Koreya Respublikasi	671,0	509,9	491,4
Xitoy	567,1	617,7	444,0
Rossiya Federatsiyasi	143,0	253,0	249,0
Qozog'iston	261,8	181,0	177,5
Braziliya	110,6	72,7	79,4
Qirg'iziston	139,3	61,1	75,6
AQSh	70,5	65,7	42,2
Afg'oniston	0,3	51,2	41,0
Meksika	94,6	77,8	31,8
Turkiya	54,2	28,7	28,3
Germaniya	24,4	6,7	23,5
Belarus	17,2	21,5	22,8
Slovakiya	13,7	15,9	22,8
Hindiston	30,0	15,4	18,7
Ozarbajjon	12,6	15,6	12,1
Vyetnam	5,2	7,1	10,9
Tailand	6,0	5,3	10,6
Polsha	7,5	9,2	9,3
Chexiya	9,7	8,3	6,6
Eron Islom Respublikasi	8,9	4,3	5,3

Andijon viloyati jahonning 75 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (26,04 %), Xitoyda (23,9 %), Rossiyada (13,4 %), Qozog'istonda (9,5 %) va Braziliyada (4,3 %) qayd etilgan.


II. ANDIJON VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, mln AQSH dollari)

Tarkibi	Mln AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024 y.	2025 y.	2024 y.	2025 y.	2024 y.	2025 y.
Jami eksport	515,8	479,6	86,7	93,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,9	31,1	114,9	142,1	4,2	6,5
Ichimliklar va tamaki	1,7	2,0	51,4	116,0	0,3	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,3	2,2	53,2	175,5	0,2	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	47,5	39,3	8 762,0	82,7	9,2	8,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,4	24 209,5	947,4	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,4	7,2	39,3	162,6	0,9	1,5
Sanoat tovarlari	130,1	75,2	97,7	57,8	25,2	15,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	166,4	170,7	64,3	102,6	32,3	35,6
Turli xil tayyor buyumlar	136,6	136,8	84,8	100,1	26,5	28,5
Xizmatlar	5,8	14,7	103,1	252,5	1,1	3,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,9 % ni tashkil etib, asosiy ulush mashinalar va transport asbob uskunalari (35,6 %), turli xil tayyor buyumlar (28,5 %), sanoat tovarlari (15,7 %) va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari (8,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Andijon viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025 yil yanvar-iyun oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston (35,9 %), Rossiya (28,3 %), Qirg'iz Respublikasi (11,9 %), Afg'oniston (8,5 %), Belarus (4,4 %), Ozarbajjon (2,5 %), XXR (2,0 %), Turkiya (1,1 %), Ukraina (0,9 %) va AQSH (0,8 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 96,3 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining xsst bo'yicha eksporti tarkibi (2025-yil yanvar-iyun, ming AQSH dollari)

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	31 107,9	142,1
5	Sabzavotlar va mevalar	28 268,4	142,6
7	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 696,9	443,9
2	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	686,9	77,2
6	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	253,5	244,3
4	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	148,3	21,7
0	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	49,1	818,6
9	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	4,6	260,3
1	Ichimliklar va tamaki	1 975,5	116,0
11	Ichimliklar	1 975,5	116,0
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2 229,3	175,5
26	To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari (ip kalava va mato holatiga keltirilmagan)	1 084,5	215,6
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	695,7	179,6

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
22	Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	396,8	151,5
27	56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	51,9	82,9
24	Probka va yo'goch-taxtalar	0,3	0,6
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	39 335,0	82,7
33	Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	39 335,0	82,7
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	433,5	947,4
42	O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	433,3	947,0
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,2	-
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	7 156,7	162,6
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5 438,1	158,9
52	Noorganik kimyo moddalari	602,4	184,0
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	410,3	365,3
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	319,7	200,4
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	258,6	142,1
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	97,1	51,6
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	21,5	282,4
51	Organik kimyo moddalari	9,1	447,7
6	Sanoat tovarlari	75 234,0	57,8
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	61 143,2	50,4
66	Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	6 535,2	517,0
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 960,3	181,9
62	Rezina buyumlari	1 455,3	163,8
68	Rangli metallar	677,5	192,0
67	Cho'yan va po'lat	217,8	6,6
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	156,3	128,7
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	62,7	29,4
61	Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	25,6	76,9
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	170 666,7	102,6
78	Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	107 859,7	97,1
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	55 655,6	121,8
77	Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari	3 621,8	110,9
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	1 590,1	28,1
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	536,9	250,1
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	485,8	299,3
79	Boshqa transport uskunolari	479,4	5 025,0
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	374,3	171,6

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	63,1	77,2
8	Turli xil tayyor buyumlar	136 795,0	100,1
84	Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	131 070,9	99,9
85	Poyabzal	2 125,0	94,5
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	2 010,5	151,6
89	Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 241,9	85,5
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	174,5	58,4
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	165,2	144,2
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari	4,9	94,6
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	2,3	52,1


2025-yil yanvar-iyun oylarida 61,0 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024 yilning mos davriga nisbatan 5,7 % yoki 3,3 ming tonnaga ortdi.

Meva va sabzavotlar eksporti

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar
Jami	57 680,7	21 048,4	60 981,2	30 166,6
<u>mevalar va rezavorlar</u>	2 249,7	2 091,5	3 116,4	3 181,6
uzum	248,2	59,2	860,6	734,6
gilos	304,6	632,4	150,3	306,8
quritilgan uzum	183,4	129,7	367,7	496,3
o'rik	470,9	552,8	624,8	596,3
xurmo	218,9	151,0	86,3	43,1
quritilgan o'rik	19,2	13,0	87,7	113,3
<u>sabzavotlar</u>	47 388,1	16 474,5	46 150,5	24 101,7
karam	8 110,0	1 436,3	6 142,8	1 775,7
sabzi	19 360,0	2 894,4	11 519,4	2 165,8
qalampir	827,3	336,7	2 592,9	1 646,5
piyoz	3 646,9	557,2	7 695,1	1 851,7
pomidor	2 477,8	2 326,7	2 812,7	2 061,7
bodring	2 541,4	1 799,7	2 423,1	1 073,3
<u>mosh</u>	802,7	550,1	1 380,2	1 011,3
<u>yeryong'oq</u>	203,3	393,6	104,2	235,6
<u>boshqalar</u>	7 036,9	1 538,7	10 229,9	1 636,4

2025-yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 30,2 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024 yilning mos davriga nisbatan 43,3 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 6,2 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi (foizda)




2025-yil yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha 192,5 mln AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 40,1 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,2 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (70,3 %), ip kalava (14,6 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti tarkibi

(2025-yil yanvar-iyun, ming AQSH doll.)



2025-yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar eksporti hajmi 14,7 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 3,1 % ini tashkil etib, 2024 yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (25,6 %), moliyaviy xizmatlar (20,7 %), qurilish (16,4 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (15,0 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (18,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, transport xizmatlari (14,6 %), boshqa amaliy xizmatlar (3,9 %) hamda ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (3,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

III. ANDIJON VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-iyun oyida import hajmi 1 380,6 mln AQSh dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 11,5 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (55,3 %), sanoat tovarlari (19,6 %) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Andijon viloyatining importi tarkibi

(yanvar-iyun, mln AQSH dollari)


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024 y	2025 y	2024 y	2025 y	2024 y	2025 y
Jami import	1 559,8	1 380,6	89,9	88,5	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,2	16,4	157,0	95,4	1,1	1,2
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,2	137,0	94,3	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,2	21,1	125,4	148,4	0,9	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	105,9	104,0	762,4	98,2	6,8	7,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	0,9	41,8	103,1	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	101,6	95,5	71,2	94,0	6,5	6,9
Sanoat tovarlari	290,5	271,0	93,5	93,3	18,6	19,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	926,1	763,7	81,4	82,5	59,4	55,3
Turli xil tayyor buyumlar	59,1	51,7	91,6	87,5	3,8	3,7
Xizmatlar	44,0	56,0	108,5	127,4	2,8	4,1

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-iyun oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 179,2 mln AQSh dollariga kamaydi va 1 324,5 mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 56,0 mln AQSh dollariga yetdi.

Andijon viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari

(mln AQSH dollari)



2025-yil yanvar-iyun oylarida Andijon viloyati 63 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Koreya Respublikasi (35,6 %), XXR (31,5 %), Rossiya (8,2 %), Braziliya (5,7 %), AQSH (2,8 %), Meksika (2,3 %), Turkiya (1,7 %) va Turkiya (1,7 %) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.


Andijon viloyatining XSST bo'yicha importi tarkibi
(2025-yil yanvar-iyun, ming AQSH dollari)

XSST kod	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16 430,3	95,4
4	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 417,1	90,9
0	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	4 075,1	82,1
9	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1 642,6	487,5
5	Sabzavotlar va mevalar	1 402,9	68,8
7	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 220,6	116,5
8	Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1 049,6	69,5
2	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	753,3	133,2
6	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	572,8	71,3
1	Go'sht va go'sht mahsulotlari	296,3	-
1	Ichimliklar va tamaki mahsulotlari	228,9	94,3
11	Ichimliklar	228,9	94,3
2	Nooziq-ovqat xomashyosi, yoqilg'idan tashqari	21 060,7	148,4
22	Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	8 253,7	180,5
26	To'qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindalari	4 086,8	163,3
24	Probka va yo'g'och-taxtalar	2 905,8	112,4
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari	2 693,5	136,8
23	Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)	1 992,8	97,1
27	O'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo	812,5	207,4
25	Qog'oz massasi va makulatura	314,4	571,3
28	Metall rudalari va metall parchalari	1,1	1,7
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	104 035,3	98,2
33	Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	81 410,7	87,6
32	Ko'mir, koks va briketlar	13 628,8	163,6
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	8 995,7	194,1
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	912,6	103,1
42	O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	775,1	87,9
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	102,8	3 131,9
41	Hayvonlarning moylari va yog'lari	34,6	-
5	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	95 491,2	94,0
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	28 957,8	111,1
52	Noorganik kimyo moddalari	25 013,8	78,6
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	16 908,0	118,0
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	8 738,6	76,4
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	5 891,3	104,5

XSST kod	XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati % da
51	Organik kimyo moddalari	5 055,1	94,1
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3 907,8	66,8
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari	926,2	91,3
56	O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	92,6	106,8
6	Sanoat tovarlari	270 975,1	93,3
67	Cho'yan va po'lat	113 621,1	92,4
62	Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	61 089,4	98,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	59 022,4	91,5
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar	22 053,7	84,5
68	Rangli metallar	6 334,4	147,2
66	Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	5 952,7	68,2
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	1 450,8	305,5
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	1 126,9	127,9
61	Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	323,6	51,4
7	Mashinalar va transport asbob uskunalari	763 676,7	82,5
78	Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	447 439,9	79,0
77	Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari	86 610,0	90,1
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar	74 907,7	89,4
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	65 966,6	90,2
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	59 570,9	126,5
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	21 481,9	125,1
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	5 427,8	18,2
79	Boshqa transport uskunalari	1 343,6	106,6
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	928,2	8,1
8	Turli xil tayyor buyumlar	51 709,0	87,5
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar	19 374,9	89,4
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	17 524,6	74,7
89	Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9 846,8	111,2
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 147,8	94,0
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	637,5	138,6
84	Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	527,6	95,8
85	Poyabzal	512,1	74,3
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	137,7	169,0

2025 yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 56,0 mln AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 27,4 % ga ko'paydi.

Xizmatlar importi tarkibi (mln AQSh dollarida)



Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi intellektual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar (81,7 %), boshqa amaliy xizmatlari (15,2 %), AKT xizmatlari (1,6 %) va ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlar (1,2 %)ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Import hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: X.Toxirov Tel: +998742248000 (6090)	Ijrochi: N. Usmanova Tel: +998742248000 (6041)	Manzil: 170100, Andijon sh., M.Tiklanish ko'chasi, 36-a
---	--	--	---